

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH

Usmanova Maxfuza Sadikovna

f.f.d dotsent Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası

Jizzax davlat pedagogika universiteti

u.maxfuza2912@gmail.com

+99916264244

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ortib borayotganligi sababli, ushbu metodlarni qo'llash bolalarning nutqiy faolligini oshirish, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini kuchaytirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rolli o'yinlar, debatlar, guruhli ish, va case-study kabi interaktiv usullar muloqot jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Maqolada ushbu metodlarning asosiy xususiyatlari, ularni qo'llash natijalari va ta'lim jarayoniga ta'siri batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muloqot ko'nikmalari, interfaol usullar, ta'lim, rolli o'yinlar, guruhli ish, tanqidiy fikrlash, bahs-munozara, ijtimoiy malaka, o'zaro hamkorlik, interaktiv ta'lim.

I.KIRISH

Kommunikativlik – bu insonning o'z fikrini to'g'ri ifodalash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, fikr almashish va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatidir. 6-7 yoshdagi bolalar uchun kommunikativlikni rivojlantirish muhim jarayon bo'lib, ularning maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rishi, tengdoshlari va kattalar bilan to'g'ri muloqot o'rnatishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalar so'z boyligi kengayadi, fikrlarini ifodalashga intiladilar va ijtimoiy qobiliyatlari rivojlanadi. Ular suhbatlashish, savollarga javob berish, his-tuyg'ularini bayon qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadilar. Muloqot inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, u shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilashda, bilim olish va mehnat jarayonida muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, muloqot qobiliyatlari kuchli bo'lgan shaxslar o'z fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lim olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me'rosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e'tiborga olgan holda

bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, uni jahon ta'lim standartlari talablari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, bolalari kamolga erishgan davlatlar taraqqiyotida bu omil o'ziga xos o'rin tutadi. 6-7 yoshdagi bolalarda kommunikativlikni shakllantirish ularning kelajakdagi ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun interaktiv o'yinlar, rolli mashg'ulotlar, jamoaviy ishlar va ota-ona hamda tarbiyachilarning doimiy qo'llab-quvvatlashi talab etiladi. An'anaviy ta'lim usullari faqat bilim berishga qaratilgan bo'lsa, interaktiv metodlar orqali o'quvchilar o'zaro faol muloqotda bo'lib, erkin fikrlash, argumentlash va mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi. Ushbu maqolada muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlar, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligi haqida so'z yuritiladi. Muloqot (kommunikatsiya) ko'nikmalari insonning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash samarali natijalar berishi aniqlangan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv usullar nafaqat bilimlarni singdirish, balki o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, fikr almashish va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlab tutish lozimki, bolalarni maktabdagi o'qish jarayoniga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish ijtimoiy muhitga moslashtirish juda zaruriy shartlardandir. Bu masalani o'z davrida rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. K.D.Ushinskiyning ko'rsatishicha, bolalarning nutqni egallashlari ularning maktabdagi o'qishga tayyor ekanliklarini ko'rsatuvchi eng ishonchli dalildir. Shuning uchun katta guruh (6-7 yoshli) bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi, puxta o'rganishlariga, ya'ni so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz qilishlariga va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak.

Bolalar psixologi D.B.Elkonin ta'kidlaganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. Albatta, bolani maktabda muvaffaqiyatli o'qishi maktabgacha ta'lim davridagi tayyorgarligiga bog'liq. Bolani maktabda o'qishga, ya'ni xayotning yangi bosqichiga tayyorlash uning shaxsi rivojlanishining barcha tomonlarini, ya'ni uning ruxiy, irodaviy, aqliy, xulq-atvor qoidalarini, bilim va h.k. jihatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bular esa maktabgacha ta'lim davrida amalga oshiriladi.

Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalari asosida ta'lim tarbiya jarayonini yuksaltirish,

milliy g'oyani ro'yobga chiqaradigan barkamol avlodni voyaga yetkazish eng muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni⁵³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarori⁵⁴, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 09.09.2017 yildagi PQ-3261-sonli qarori⁵⁵, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 29.12.2016 yildagi PQ-2707-sonli qarori⁵⁶, 2019-yil 22-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni⁵⁷, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida qaror⁵⁸ va farmonlar ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish ta'lim tarbiya berish maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha qator vazifalarni belgilaydi

Respublikamizda ushbu masala N.Azizxodjayeva, R.Jo'rayev, O.Musurmonova, X.Ibragimov, M.Quronov, N.Shodiyev, M.Mahmudova, N.Egamberdiyeva, M.Urazova, B.Xodjayev, Z.Saliyeva, K.Riskulova, M.Mirsoliyeva, Sh.Urakov, M.Pardayevalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligidan A.Aydagulova, A.Ashanin, N.Beylina, N.Boritko, A.Verbiskiy, A.Voronin, E.Zeer, T.Ivanayskaya, S.Kunitsina, Yu.Kustov, Yu.Livshits, O.Togushova, D.Xorvatlar tomonidan tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga metodik kompetentlik, pedagog kadrlarni tayyorlashning ilmiy-pedagogik, psixologik asoslari o'rganilgan.

Xorijiy mamlakat olimlaridan N.A .Leontyev, Elkonin, Myasishchev, K.Dyrli (K.Dirli), F.Koenen, R.Land, R.Shavelson, H.Rheingold, S.Reid, H.Spencer-Oateylar nazariy-metodologik jihatlar yoritib berilgan

II.METODLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'nikmalarning erta shakllanishi bolalarning

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlashto'g'risida"gi qarori.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida"gi 09.09.2017 yildagi PQ-3261-sonli qarori

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida"gi 29.12.2016 yildagi PQ-2707-sonli qarori

⁵⁷ "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim va tarbiyato'g'risida"gi qonuni. 2019-yil 22-oktabr.

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida qaror

ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvi va psixologik rivojlanishi uchun zarurdir. Maktabgacha ta’limda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki bu kelajakda bolalarning muvaffaqiyatli o‘qishi va ijtimoiy hayotda o‘z fikrini erkin ifoda etishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur davrda bolalar ijtimoiy muloqot orqali o‘zlarini va atrof-muhitni anglashni boshlaydilar. Kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishi ularga his-tuyg‘ularini, fikrlarini va ehtiyojlarini to‘g‘ri ifodalash hamda boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning **kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlarni qo‘llash** bo‘yicha olib boriladigan tadqiqot ilmiy asoslangan metodlarga tayanishi kerak. Quyida ushbu tadqiqotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy metodlar keltirilgan.

Pedagogik kuzatish - Bolalarning kommunikativ ko‘nikmalari qanday rivojlanayotganini real ta’lim jarayonida o‘rganish. Tarbiyachi yoki tadqiqotchi maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning o‘zaro muloqotini kuzatadi. O‘yin jarayonida bolalarning bir-biri bilan qanday muloqot qilayotganiga e’tibor beriladi.

Interfaol metodlar qo‘llanilganda bolalarning qiziqish darajasi, faol ishtiroki va nutqiy rivojlanishi kuzatiladi. Mashg‘ulotlar davomida bolalar bilan bevosita kuzatish olib borish. Ularning suhbatlarini eshitish va qanday savollarga qanday javob berayotganiga e’tibor qaratish. Kuzatuv natijalarini qayd qilish va ularni tahlil qilish.

Ekspiriment metodi - Interfaol metodlarning bolalarning kommunikativ rivojlanishiga ta’sirini baholash. Bolalar ikki guruhga ajratiladi: eksperimental guruh (interfaol metodlar qo‘llaniladigan) va nazorat guruhi (an’anaviy metodlar bilan shug‘ullanuvchilar). Ma’lum vaqt davomida interfaol metodlar qo‘llaniladi va natijalar baholanadi. Mashg‘ulotlardan oldin va keyin bolalarning kommunikativ ko‘nikmalari o‘zgarishi tahlil qilinadi. Qo‘llash usuli: Mashg‘ulotlarga interfaol metodlarni (rolli o‘yinlar, bahs-munozaralar, juftlikda ishlash) kiritish. Ekspiriment oldidan va keyin bolalarning nutqiy faolligi va muloqot qilish qobiliyatlarini baholash. Natijalarni taqqoslab, samaradorlikni aniqlash.

So‘rovnoma va intervyu metodi - Pedagoglar, ota-onalar va tarbiyachilarning fikrlarini o‘rganish, interfaol metodlarning samaradorligi haqida ma’lumot to‘plash. Tarbiyachilar va ota-onalar orasida so‘rov o‘tkazilib, bolalarning kommunikativ rivojlanishiga interfaol metodlarning qanday ta’sir qilgani aniqlanadi.

Ota-onalardan bolalar uyda qanday muloqot qilishlari, jamiyatda qanday o‘zini tutishlari haqida intervyular olinadi. Qo‘llash usuli: Pedagoglar va ota-onalar uchun so‘rovnoma savollari ishlab chiqish. Bolalarning interfaol metodlar bilan shug‘ullanishidan oldin va keyin ota-onalar va tarbiyachilarning fikrlarini o‘rganish. Natijalarni statistik jihatdan tahlil qilish va xulosa chiqarish.

Diagnostik test metodi - Bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasini aniq o‘lchash. Bolalarga muloqot qilish, savollarga javob berish, dialoglar qurish va hikoya tuzish kabi topshiriqlar beriladi.

Mashg‘ulot oldidan va keyin diagnostik testlar o‘tkazilib, natijalar tahlil qilinadi.

Qo‘llash usuli: “Hikoya tuzish” topshirig‘i – bolaning tasavvuridan kelib chiqib, mustaqil hikoya tuzishi so‘raladi. “Rolli o‘yin” – bola turli vaziyatlarda qanday

muloqot qilishini ko'rsatadi. Natijalarni baholab, interfaol metodlarning ta'sirini aniqlash.

Statistik tahlil:

Maqsad: Eksperiment va so'rovnomalar natijalarini ilmiy asosda baholash.

Yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarni statistik jihatdan tahlil qilish.

Bolalarning kommunikativ ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni raqamlar bilan ifodalash. Qo'llash usuli: Tajriba natijalarini grafik va jadvallar shaklida ifodalash. Bolalarning kommunikativ rivojlanishidagi o'zgarishlarni statistik ma'lumotlar bilan asoslash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarda kuzatish, eksperiment, so'rovnoma, diagnostik testlar va statistik tahlil kabi metodlardan foydalanish mumkin. Ushbu metodlar interfaol ta'limning bolalarning muloqot qobiliyatlariga ta'sirini o'rganish, uning samaradorligini baholash va kelajakda yanada samarali usullarni ishlab chiqishga yordam beradi.

III.NATIJALAR

Muloqot inson hayotida katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish va bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun muloqot qobiliyatlarini shakllantirish zarur. Muloqot quyidagi jihatlarda muhim ahamiyatga ega:

Bilim almashish – o'quvchilar o'zaro va o'qituvchi bilan muloqot qilish orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – erkin muloqot orqali o'quvchilar turli fikrlarni tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantirish – interaktiv metodlar orqali o'quvchilar hamkorlikda ishlash, bahs-munozara yuritish va bir-birini tinglashga o'rganadi. Ijtimoiy moslashuvni oshirish – muloqot orqali o'quvchilar o'z fikrlarini ishonch bilan ifodalashni o'rganadi, bu esa ularning jamiyatga moslashuv jarayonini yengillashtiradi.

Interaktiv metodlar ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish bilan birga, o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu metodlarning asosiy maqsadi – o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdir.

6-7 yoshda bolalar nutq orqali o'z fikrlarini to'liq ifodalashni boshlaydilar va muloqot jarayonida quyidagi o'zgarishlar yuzaga keladi: Nutqning rivojlanishi: Bolalar o'z fikrlarini to'liq gaplar bilan ifoda eta boshlaydilar. Leksik boylikning oshishi: Ular yangi so'z va iboralarni o'rganib, faol qo'llashni boshlaydilar. Grammatik tuzilishning yaxshilanishi: So'zlar o'rtasidagi bog'lanishlar yaxshilanadi va nutq mantiqiy tuzilma kasb etadi. Dialogik va monologik nutq shakllanishi: Bola o'z fikrlarini mustaqil bayon qila boshlaydi va savollarga aniq javob bera oladi. Ijtimoiy muloqotga tayyorgarlik: Maktabga tayyorgarlik ko'rayotgan bola ustozlar va do'stlari bilan qanday muloqot qilishni tushunib boradi.

Asosiy tavsiyalar:

Pedagogik kuzatish orqali interfaol metodlarning samaradorligini o'rganish. Eksperiment o'tkazish orqali an'anaviy va interfaol metodlarni solishtirish. Ota-onalar va tarbiyachilar bilan so'rovnomalar o'tkazib, ularning fikrini inobatga olish. Diagnostik testlar yordamida bolalarning rivojlanishini baholash.

Ushbu yondashuvlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish mumkin

IV. XULOSA

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish hozirgi ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biridir. Interaktiv metodlar o'quvchilarning faolligini oshirib, ularni muloqot qilishga, o'z fikrini erkin ifodalashga va boshqalar bilan samarali ishlashga o'rgatadi. Munozara, rolli o'yinlar, «aqliy hujum» va guruhli ish kabi metodlar o'quv jarayonini jonlantirib, muloqot madaniyatini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Interaktiv metodlarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish orqali o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy faolligi oshirilishi mumkin. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlar nafaqat ta'lim jarayonini samaraliroq qiladi, balki o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Ushbu usullar orqali o'quvchilar mustaqil va tanqidiy fikrlashni o'rganib, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar;

- 6-7 yoshli bolalar o'z fikrlarini ifodalashni o'rganish jarayonida bo'ladilar
- Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish uchun dialoglar, rolli o'yinlar va hikoya tuzish usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi.
- Ota-onalar va tarbiyachilar bolaning nutq rivojlanishini doimiy rag'batlantirib borishlari kerak.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida” gi Qonuni. PQ-4595-sonli qarori. Bolaning qonuniy vakillari va pedagoglarning huquq va majburiyatlari. – Toshkent.: 2019 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” PQ-4312-sonli qarori – T.: 2019 yil 8 may.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida” PQ-3955 –T.: 2018 yil 30 sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida” gi 391-sonli VM-391 qarori T.: 2019 yil 13 may.
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining takomillashtirilgan o'quv dasturi “Ilk qadam” T.: 2022 yil.
6. X. Xudayqulov, F. Abdurazaqov. Yoshlar orasida nutq madaniyati rivojlantirish texnologiyalari // Science and innovation, – 2022. // № 7. –B.815-821
7. Dursunov Sardor, Nigora Axtamova. Maktabgacha yoshdagi bolalar

nutqini rivojlantirish // Academic research in educational sciences, - 2023. // № 4, - B. 1040-1045.

8. M. Usmanova, S. Sanakulova. Development of Speech in Preschool Children through Constructive Methods // *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, – 2024. // № 36, –B.35-38.

9. Usmanova M. S, The importance of national values in the development of preschool children // *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*. – 2022. // – № 7, - B. 173-187.